

**MUSTAQIL TA'LIMDA FILOLOGIK OTM TALABALARINING PRODUKTIV
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA "FLIPPED CLASSROOM" DAN
FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Xodjaniyazova S. M.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 1-kurs doktoranti

Akbarova Sh. X.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, ilmiy rahbar

XXI asrda ta'limga sohasida yuz berayotgan tub islohotlar, global raqamlashtirish, yangi avlod pedagogik yondashuvlari oliy ta'limga tizimida ham yangicha fikrlash va o'rgatish metodlarini joriy etishni taqozo qilmoqda. Xususan, filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun til ko'nikmalarining to'laqonli shakllanishi ularning bo'lajak kasbiy muvaffaqiyatlarining kalitidir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan "Flipped classroom" (ag'darilgan sinf) modelining mustaqil ta'limga qo'llanishi orqali til ko'nikmalarini rivojlantirishga yangi sifat bosqichi olib kirlishi mumkin.

"Flipped classroom" yoki "ag'darilgan sinf" modeli – bu o'qitishning innovatsion shakli bo'lib, bunda nazariy materiallar (ma'ruzalar, videodarslar, maqolalar) talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladi va dars esa amaliy mashqlar, muhokamalar va interaktiv topshiriqlar orqali olib boriladi. Bu model mustaqil ta'limga rivojlantirish, talabalarni faollikka undash, hamda dars jarayonida hayotiy muloqot va ijodiy yondashish imkonini beradi. Produktiv ko'nikmalar – til o'rganishda eng murakkab ko'nikmalar hisoblanadi. Afsuski, an'anaviy darslarda bu ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmaydi. Talabalar ko'proq grammatik qoidalarni yodlash, matn tarjima qilish kabi receptive faoliyatga e'tibor qaratadi. Natijada, mustaqil yozish va erkin fikr bildirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Flipped classroom modelining afzallikkari juda ko'p.

Mazkur model orqali:

- Talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan munosabati kuchayadi;
- Dars jarayonida og'zaki muloqot, debat, rolli o'yinlar, ese yozish kabi interaktiv faoliyatlar olib boriladi;
- Har bir talabaga individual yondashuv paydo bo'ladi;
- Talabaning bilim olish paytida ustidan nazorat ortadi;
- Produktiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qulay imkon yaratiladi.

Flipped classroom modelini filologik OTM talabalarining mustaqil ta'limgiga integratsiya qilishda quyidagilarni taklif etamiz:

1. Maxsus onlayn platformalar (Google Classroom, Edmodo, Moodle) orqali nazariy materiallar va topshiriqlarni taqdim qilish;
2. Videodarslar va mini-ma'ruzalar tayyorlab, talabalarni ularni mustaqil o'rganishga yo'naltirish;
3. Ese yozish, og'zaki prezентatsiya tayyorlash kabi mustaqil topshiriqlar berish;
4. Dars jarayonida interaktiv metodlar va usullar – debat, fishbowl, peer-assessment orqali faol ishtirok etgan talaba yoshlarni rag'batlantirish;
5. Talabalar bilan refleksiya ishlari olib borish (o'zlashtirish darajasini tahlil qilish);
6. O'qituvchilarning bu model bo'yicha metodik kompetensiyasini oshirish uchun treninglar tashkil etish.

"Flipped classroom" modeli talabaga yo'naltirilgan ta'limga va faol o'rganish nazariyalariga asoslanadi. Bu modelda asosiy e'tibor o'qituvchining ma'ruzalariga emas, balki talabalar tomonidan mustaqil tarzda bilim olishiga va dars vaqtida shu bilimlarni amalda qo'llashga qaratiladi. Jon Bergmann va Aaron Sams tomonidan ishlab chiqilgan ushbu model avvalo AQSh maktablarida sinovdan o'tkazilgan va keyinchalik oliy ta'limga tizimida ham keng tarqalgan. Produktiv ko'nikmalar – bu talabaning o'rgangan til vositalaridan foydalangan holda o'z fikrini yozma yoki og'zaki tarzda ifoda eta olishidir. Filologik OTMlarda bu ko'nikmalarni rivojlantirishda nazariy bilimlarga ko'proq urg'u beriladi, amaliy mashqlar yetarli emas. Talabalar mustaqil yozish va gapishtidan cho'chiydi, darsda esa vaqt cheklangan bo'ladi. Bu muammolarni hal qilishda "Flipped classroom" modeli aynan zarur vosita bo'la oladi. Yozma topshiriqlarni uyga

berish, darsda esa tahlil qilish, interaktiv speaking faoliyatları, peer assessment orqali tahliliy fikrlashni rivojlantirish – bular modelning asosiy afzalliklaridir. Shuningdek, har bir talaba o‘z tezligida o‘rganishi, individual yondashuv va mustaqil ta’lim imkoniyatlarını kengaytiradi. Darsda talabalarning o‘zaro fikr almashishi, do‘stona tanqid va hamkorlik asosida baholash jarayonlari o‘rnatalidi. Bu jarayonlar til ko‘nikmalarini mustahkamlashga, o‘zgarishlarni tezda tahlil qilishga yordam beradi. "Flipped classroom" modeli talabaning mustaqil ishlashini, o‘z bilimini amalda qo‘llashini rag‘batlantiradi. Talaba uyda video darslarni tomosha qilganidan so‘ng, darsda o‘rganilgan bilimlarni amaliy mashqlar yordamida mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu model o‘quvchilarning bir-biriga savollar berish, jamoaviy ishlar orqali fikr almashish imkoniyatlarini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, nutq qobiliyatlarini rivojlantiradi va til o‘rganishdagi ijobiy natijalarga olib keladi. Talabalar darsda faqatgina ma’ruzalar emas, balki o‘zaro baholash, taqqoslash, fikr almashish orqali ko‘proq ishtirok etadilar. Bu esa, ularning bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, "Flipped classroom" modeli orqali filologik yo‘nalishdagi talaba yoshlar tilni nafaqat nazariy o‘zlashtiradi, balki uni mustaqil yozish va gapirish orqali amaliyotda ham qo‘llay olishadi. Shuningdek, bu model mustaqil ta’limni rivojlantirish va talabani faol o‘quvchi-subyekt sifatida shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Bergmann, J., & Sams, A. (2012). *Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day*. International Society for Technology in Education.
- 2.Bishop, J. L., & Verleger, M. A. (2013). *The Flipped Classroom: A Survey of the Research*. ASEE National Conference Proceedings.
- 3.Talmon, S. & Gilad-Bachrach, R. (2017). Educational Technologies for Developing Productive Skills in Higher Education. *Journal of Educational Research*.
4. CEFR. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. Council of Europe.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. (2021). Oliy ta’limda innovatsion metodikalarni joriy etish to‘g‘risida.